

## **IX–XIII ASRLAR MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASINING MADANIY TRANSFORMATSIYASI**

**Mahliyo Turdixovajayeva**

TDSHU o'qituvchisi, T.f.f.d., (PhD)

<https://orcid.org/0009-0008-5599-9647>

[turdixovajayevamakhliyo@gmail.com](mailto:turdixovajayevamakhliyo@gmail.com)

**Salimov Samandar**

TDSHU o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada IX–XIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi madaniy taraqqiyot jarayonlari, xususan, Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlari misolida zamonaviy tarixshunoslik prizmasi orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda islomiy va mahalliy turkiy-forsiy an'analar sintezi, miniatyura san'atining evolyutsiyasi, shaharsozlik madaniyati hamda fan taraqqiyoti masalalari xorijiy va mahalliy olimlarning (R. Frye, L. Treadwell, X. Liu, Sh. Toshova) ilmiy qarashlari asosida o'rganiladi. Maqolada mintaqaning uyg'onish markazi sifatidagi o'rni, bilingvizmning (ikki tillilik) ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda hunarmandchilik va me'morchilikdagi etno-madaniy o'ziga xosliklar ilmiy dalillar va arxeologik ma'lumotlar yordamida asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Markaziy Osiyo, Islomiy uyg'onish, tarixshunoslik, Somoniylar, Qoraxoniylar, miniatyura san'ati, bilingvizm, me'moriy epigrafika, turkiy-fors sintezi, shaharsozlik madaniyati, hunarmandchilik.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the processes of cultural development in the Central Asian region in the 9th–13th centuries, in particular, through the prism of modern historiography, using the example of the Samanids, Ghaznavids, Karakhanids and Seljuks. The study examines the synthesis of Islamic and local Turkic-Persian traditions, the evolution of miniature art, urban planning culture and the development of science based on the scientific views of foreign and local scholars (R. Frye, L. Treadwell, H. Liu, Sh. Toshova). The article substantiates the role of the region as a center of the Renaissance, the socio-political significance of bilingualism (bilingualism), and ethno-cultural features in crafts and architecture using scientific evidence and archaeological data.*

**Keywords:** *Central Asia, Islamic Renaissance, historiography, Samanids, Karakhanids, miniature art, bilingualism, architectural epigraphy, Turkic-Persian synthesis, urban planning culture, crafts.*

## **KIRISH**

Markaziy Osiyoning oʻrta asrlar madaniyati islom sivilizatsiyasi va mahalliy anʼanalar uygʻunligining oʻziga xos namunasidir. Islomiy diniy meʼmorchilikda haykal va devoriy suratlar taqiqlangan boʻlsa-da, ularning tasviriy anʼanalari kitob miniatyurasi shaklida davom etdi. Bu sanʼat shakli aslida mintaqaning qadimiy merosi boʻlib, Markaziy Osiyodagi buddaviy jamoalarning qoʻlyozmalarni bezash tajribasidan oziqlangan edi<sup>1</sup>. Xitoydan kirib kelgan qogʻoz ishlab chiqarish texnologiyasi bu madaniy almashinuvni tezlashtirdi. Islom dunyosining gʻarbida qogʻoz asosan diniy matnlar uchun ishlatilgan boʻlsa, Xuroson va Markaziy Osiyoda u fors adabiyoti va sanʼatining boy merosini oʻz ichiga oldi. Bu davrning eng ulkan adabiy yodgorligi boʻlgan Firdavsiyning “Shohnomasi” islomdan avvalgi Eron tarixini ommalashtirib, uning bezatilgan nusxalari butun mintaqaga tarqaldi. Moʻgʻullar davriga kelib, miniatyura sanʼati yuksak choʻqqiga chiqdi va rasmlarda hatto “dionisiy” anʼanalar – musiqa, sharob va raqs sahnalari ham aks etdi. Sugʻdiyona shahar-davlatlari va Tarim havzasi oʻrtasidagi kiyim-kechak uslublarining oʻxshashligi esa bu madaniy yaxlitlik arablar istilosidan avval ham mavjud boʻlganini tasdiqlaydi.

Professor Edmund Herzig va Dr. Sarah Stewartlarning “The Seljuqs and Their Successors: Culture, Art and History” nomli asari Saljuqiylar davrining madaniy, ilmiy va badiiy yuksalishini yangi ilmiy yondashuv asosida tahlil etadi. Kitobda XI–XIV asrlarda turkiy qabilalardan shakllangan Saljuqiylar imperiyasi Markaziy Osiyodan Sharqiy Oʻrta Yer dengizigacha boʻlgan hududlarda yaratgan boy madaniyat, sanʼat va ilm-fan muhitining oʻzaro uygʻunligi yoritiladi. Asar fors–arab–islomiy, turkman, vizantiya, arman va xristian anʼanalari sintezidan hosil boʻlgan madaniy uygʻonish jarayonini, shuningdek meʼmorchilik, sheʼriyat, astronomiya, hunarmandchilik va diniy eʼtiqodlardagi yangilanishlarni oʻrganadi. Kitobda Isfahon juma masjidi, eng qadimgi “Shohnoma” nusxasi va Saljuqiy unvonlar tizimi misolida bu sivilizatsiyaning estetik, siyosiy va dini merosi tahlil qilingan. Herzig va Stewart tahriridagi ushbu nashr Saljuqiylar davlati madaniyatini uygʻonish davrining markaziy bosqichi sifatida koʻrsatadi va uni Islom dunyosining ilmiy–badiiy taraqqiyoti sifatida baholaydi.

Sanʼat va meʼmorchilikning yuksalishi Gʻaznaviylar davrida ham davom etdi. Hukmdorlarning homiyligi hamda Hindistondan olingan boyliklar Hirot, Balx va Bostda muhtasham saroylar, bogʻlar va maqbaralar bunyod etilishiga imkon berdi. Lashkari Bozor saroy majmuasi va Gʻazna minoralari bu davr meʼmorchiligining

---

<sup>1</sup> Xinru Liu, “Nomads and Oasis Cities: Central Asia from the 9th to the 13th Century”, *The Silk Road* 13, 2015, pp. 45–59

nafisligidan dalolatdir. Islom tarixi bu faqat din tarixi emas, balki uning tarkibida yashagan turli xalqlarning sivilizatsiyasidir. Bu jarayon mahalliy madaniyatlar bilan uyg'unlashib, "xalqona islom" shakllarini yaratdi. Shu o'rinda, Al-Xorazmiy, Beruniy, Farobiy va Ibn Sino kabi allomalar nafaqat islom, balki Yevropa fani taraqqiyotiga ham beqiyos hissa qo'shdilar<sup>2</sup>. Mintaqa madaniy o'zligining shakllanishida Tohiriylar va ayniqsa Somoniylar sulolasining o'rni beqiyosdir. Tohiriylar fors madaniyatini yuksaltirib, markazlashgan boshqaruv tizimini o'rnatgan bo'lsalar, Somoniylar davrida islom davlat diniga aylandi va Buxoro ilm-fan markazi sifatida dunyoga tanildi. Dilrabo Tosheva Ismoil Somoniy maqbarasini yangi arxeologik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, uni turkiy va forsiy san'at unsurlarining noyob sintezi sifatida baholaydi<sup>3</sup>. Luke Treadwell Somoniylar davlatini "islomiy uyg'unishning sharqiy markazi" deb atasa<sup>4</sup>, D.G. Tor bu davrda madrasa tizimi shakllanganini va islomning lokal shakli vujudga kelganini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishi va ijtimoiy infratuzilmasi ham o'sha davr uchun eng ilg'or model bo'lgan<sup>6</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Somoniylar davrida fors tili yangi imlo va arabcha so'zlar bilan boyib, ma'muriyat va adabiyot tiliga aylandi. Rudakiy va Firdavsiy kabi shoirlar bu tilda o'lmas asarlar yaratdilar. R. Frye ta'kidlaganidek, fors uyg'unishi Eron hududida emas, ayniqsa ijtimoiy tenglikka asoslangan savdogar jamiyati rivojlangan Markaziy Osiyoda boshlangan<sup>7</sup>. Keyinchalik Qoraxoniylar davrida turkiy va islomiy qadriyatlar uyg'unlashib, yangi badiiy uslublar yaratildi. Sh. Toshova bu davrda hunarmandchilik madaniyati yuksalganini, "xitoy guli" kabi murakkab naqshlar va hayvoniy uslublar san'atda saqlanib qolganini tahlil qiladi<sup>8</sup>. Saljuqiylar davrida esa bu sintez o'zining cho'qqisiga chiqib, me'morchilikda geometrik mukammallik (Isfahon juma masjidi kabi) va forsiy she'riyatning nufuzi ortdi<sup>9</sup>. Naymark Somoniylar davrida Buxoro shahrining urbanistik rivojlanishi va madaniy infratuzilmasini tahlil qiladi. U Buxoroni nafaqat siyosiy markaz, balki madaniy-

<sup>2</sup> Haghnavaz, J., Saiedjamaledde Alerasoul, "A History of Islam in Central Asia", American International Journal of Research in Humanities, Arts and Social Sciences 7, 2, 2014, pp. 177–183

<sup>3</sup> Dilrabo Tosheva, "Revisiting the Samanid Mausoleum in Bukhara: A New Perspective on New Materials", Muqarnas, Vol. 40, No. 1, 2023

<sup>4</sup> Luke Treadwell, "The Samanid Dynasty: The First Muslim Kings of Central Asia", Routledge, 2017

<sup>5</sup> Tor D. G. "The Islamization of Central Asia in the Samanid Era and the Reshaping of the Muslim World", Bulletin of the School of Oriental and African Studies, 2009, Vol. 72, No. 2

<sup>6</sup> Naymark A., "The Size of Samanid Bukhara: A Note on Settlement Patterns in Early Islamic Mavarannahr", Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1999

<sup>7</sup> Abdulmuhammad Hiloli, "The Importance of The Samanid State in the History of Islamic Civilization", Khorasanameen, 2006

<sup>8</sup> Toshova Sh. "Artisanal Culture in the Karakhanid Period", Turkic Studies Journal, vol. 1, no. 1, 2024, pp. 79–93

<sup>9</sup> Edmund Herzig, Sarah Stewart. The Seljuqs and Their Successors: Culture, Art and History. I.B. Tauris, 2015

ekologik muvozanatga asoslangan shahar modeli sifatida baholaydi. Arxeologik ma'lumotlar asosida Buxoroning me'moriy rejalashtiruvi, suv ta'minoti, bozorlari va hunarmandlar mahallalari orqali madaniy hayotning yuksakligi yoritiladi. Tadqiqot Somoniylar davridagi shahar madaniyatining shakllanishi va me'moriy an'analarning rivojini o'rganadi<sup>10</sup>.

Qoraxoniylar madaniyati Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistondagi eng kam o'rganilgan mavzulardan biridir. Eng asosiy ma'lumotlar keyingi davrlarda yozilgan manbalardan olinadi. Ushbu manbalar Qoraxoniylar va qo'shni davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar va diplomatik aloqalar haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga, Qoraxoniylar ichki boshqaruvi va davlat idoralari faoliyati haqida ma'lumotlar juda cheklangan. Yunesko nashri hisoblangan "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" nomli kitobning 4-jildida shunday yoziladi: "Bartoldning asosiy yozma Qoraxoniylar tarixi bo'yicha hozirgacha eng to'liq va ishonchli hisoblanadi. Qoraxoniylar tangalari ham muhim bo'lib, Bartold va boshqa tarixchilar ularni siyosiy tarix, davlatchilik va davlat boshqaruvi faoliyati haqidagi manba sifatida qadrlagan. Shuningdek, Qoraxoniylar hukmronligi davrida etnik va davlat boshqaruvi va siyosiy tartib qabila, oilaviy va merosxo'rlik tizimiga asoslangan edi. Misol tariqasida, Qutadg'u Bilig asarida Qoraxoniylar xonlari va amaldorlarining adolatli boshqaruvi, ularning xalq bilan munosabatlari va islomiy qadriyatlar aks ettirilgan. Asar shuningdek, davlat boshqaruvi va hukmronlikning Turkiy-Islomiy uslubini ko'rsatadi. Toshovanning "Artisanal Culture in the Karakhanid Period" nomli ilmiy maqolasida Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoda hunarmandchilik, san'at va madaniyat taraqqiyoti ilmiy asosda tahlil qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, bu davrning ma'naviy qadriyatlari Markaziy Osiyo xalqlarining estetik qarashlariga chuqur ta'sir ko'rsatib, turli badiiy naqsh va bezaklarning uyg'unlashuviga zamin yaratgan. Markaziy Osiyo ustalari xitoy, mo'g'ul va hind bezak elementlarini o'z ishlarida mahorat bilan qo'llab, "xitoy guli", "kashkarî guli" va "xrizantema" kabi murakkab naqsh turlarini yaratganlar. Bu madaniy yuksalish kasb-hunar sohalarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit-turk" asarida 500 dan ortiq kasb-hunar nomlarini keltirib, o'sha davrda mehnat egalari jamiyatda katta hurmat bilan qadrlanganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib esa "Qutadg'u bilig" asarida ustalarni "jamiyatga foyda keltiruvchi zarur insonlar" sifatida ta'riflaydi. Arxeologik topilmalar Qoraxoniylar davrida shahar madaniyati va iqtisodiy hayotning yuksak darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Qoraxoniylar davrida turkiy va so'g'd madaniy an'analari islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashib, natijada yangi, o'ziga xos badiiy

<sup>10</sup> Naymark A. The Size of Samanid Bukhara: A Note on Settlement Patterns in Early Islamic Mavarannahr. In Bukhara: The Myth and the Architecture, Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1999. pp.33

uslublar shakllangan. Shu bilan birga, qadimiy turkiy “hayvoniy uslub” va “tamga” belgilar san’ati an’analari ham davom etgan<sup>11</sup>. Umuman olganda, qoraxoniylar davrida ko‘chmanchi turkiy an’analar va o‘troq islomiy madaniyatning sintezi natijasida noyob madaniy uyg‘unlik yuzaga keldi. Hunarmandchilikda “turkiy unsur” asosiy o‘rinni egallab, mahalliy etno-madaniy xususiyatlarni saqlagan holda yangi badiiy uslublarni yaratdi. Bu davr madaniyati keyingi asrlar uchun Markaziy Osiyo san’ati va me’morchiligi rivojiga asos bo‘ldi

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar madaniyati faqat bir hudud yoki bir etnosning yutug‘i emas, balki turli madaniyatlar – turkiy, forsiy, arab va hatto hind va xitoy elementlarining o‘zaro hamkorligi natijasidir. Tarixshunoslik shuni ko‘rsatadiki, mintaqa o‘sha davrda nafaqat islom dunyosining, balki butun bashariyatning intellektual va badiiy generatori vazifasini o‘tagan. Somoniylar, G‘aznaviylar va Qoraxoniylar davlatlarida yaratilgan tizim – ma’rifatparvarlik, bilingvizm (ikki tillilik) va san’atga homiylik an’analari bugungi kunda ham mintaqa madaniy merosining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Mo‘g‘ullar istilosi bu jarayonni vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, Temuriylar davrida bu meros yanada ulkanroq miqyosda qayta uyg‘ondi. Buxoro, Samarqand va Xiva me’morchiligidagi kitoba bitiklar, xattotlik an’analari va to‘qimachilik san’ati o‘sha buyuk sivilizatsiyaning bizgacha yetib kelgan jonli guvohlaridir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran. – Edinburgh, 1963.
2. Golden P.B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden, 1992.
3. Haghnavaz J., Saiedjamaledde Alerasoul. A History of Islam in Central Asia // American International Journal of Research in Humanities, Arts and Social Sciences. 7, 2, 2014. – pp. 177–183.
4. Herzig E., Stewart S. The Seljuqs and Their Successors: Culture, Art and History. – I.B. Tauris, 2015.
5. Hiloli A. The Importance of The Samanid State in the History of Islamic Civilization. – Khorasanzameen, 2006.
6. Lapidus I.M. A History of Islamic Societies. – Cambridge University Press, 1988.

<sup>11</sup> Toshova Sh. Artisanal Culture in the Karakhanid Period // Turkic Studies Journal. vol. 1, no. 1, 2024, – pp. 79–93.

7. Liu X. Nomads and Oasis Cities: Central Asia from the 9th to the 13th Century // *The Silk Road*. 13, 2015. – pp. 45–59.
8. Naymark A. The Size of Samanid Bukhara: A Note on Settlement Patterns in Early Islamic Mavarannahr // *In Bukhara: The Myth and the Architecture*, Aga Khan Program for Islamic Architecture, 1999. – p. 33.
9. Tor D. G. The Islamization of Central Asia in the Samanid Era and the Reshaping of the Muslim World // *Bulletin of the School of Oriental and African Studies*. Vol. 72, No. 2, 2009.
10. Tosheva D. Revisiting the Samanid Mausoleum in Bukhara: A New Perspective on New Materials // *Muqarnas*. Vol. 40, No. 1, 2023.
11. Toshova Sh. Artisanal Culture in the Karakhanid Period // *Turkic Studies Journal*. Vol. 1, No. 1, 2024. – pp. 79–93.
12. Treadwell L. *The Samanid Dynasty: The First Muslim Kings of Central Asia*. – Routledge, 2017.